

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Цян Вэй, Сунь Лисинь	
Исследование перевода в интертекстуальной перспективе: на примере произведений	
А. Платонова	107
Н.Х.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklarida stereotip ifodalar	119
N.A.Mamajonova	
Topishmoqlar – olam manzarasining ikkilamchi nomi sifatida	127
В.А.Гиёсова	
Классификация афазии с лингвистической точки зрения: обзор литературы	130
M.A.Abdusalilova	
Abdulla qodiriyning "mehrobdan chayon" romanida uy-ro'zg'or	
buyumlariga oid so'zlarning pragmatik tahlili	134
N.A.Xoshimova	
Gender nutqida diskursivlar tadqiqi	138



GENDER NUTQIDA DISKURSIVLAR TADQIQI

STUDY OF DISCOURSE MARKERS IN GENDER SPEECH

ИЗУЧЕНИЕ ДИСКУРСИВНЫХ МАРКЕРОВ В ГЕНДЕРНОЙ РЕЧИ

Xoshimova Nargis Abdullayevna 
Farg'ona davlat universiteti, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Diskurs belgilari nutqdagi fikrni bog'lash vositalaridan biridir. Ushbu maqolada erkak va ayol nutqidagi diskurs belgilari masalasi muhokama qilinadi. Gender tili ko'p jihatdan xilma-xildir, buni har bir tilda ko'rish mumkin. Semantik jihatdan ajralib turadigan diskurs belgilari rus va o'zbek tillarida gender nutqida muhokama mavzusiga aylandi.

Abstract

Discourse markers are one of the ways of connecting ideas in an utterance. The present article discusses the issue of discourse markers in male and female speech. Gender language is diverse in many aspects, which can be seen in every language. Being distinguished by semantic intention, discourse markers have become a matter of discussions in gender speech in Russian and Uzbek languages.

Аннотация

Дискурсивные маркеры являются одним из способов связи идей в высказывании. В данной статье рассматривается проблема дискурсивных маркеров в мужской и женской речи. Гендерная лексика многогранна и проявляется во многих аспектах в каждом языке. Различаясь по семантическому назначению, дискурсивные маркеры стали предметом дискуссий в гендерной речи в русском и узбекском языках.

Kalit so'z va so'zlar: diskurs belgilari, gender nutqi, gender tili, kommunikativ aloqa, pragmatik lingvistika, gap bo'laklari.

Key words: discourse markers, gender speech, gender language, communicative contact, pragmalinguistics, part of sentence.

Ключевые слова: дискурсивные маркеры, гендерная речь, гендерный язык, коммуникативная связь, прагматическая лингвистика, части предложения.

KIRISH

Gender tilini o'rganish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masalalardan hisoblanadi, chunki u ko'plab munozarali muammolarga ega. Shuning uchun gender tilini tadqiq qilishning alohida ehtiyoji unga ko'p qirrali yondashuvlarni talab qiladi. Dastlab gender tili sotsiolingvistika fani doirasida o'rganilar edi. Biroq, uning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq o'rganish uchun gender tili masalasiga sotsiolingvistik yondashuvlar yetarli emas edi. Shu sababli, gender tili va gender nutqini lingvistik hodisa sifatida muhokama qilish doirasi kengaydi. Hozirgi vaqtda gender tili masalasini tilshunoslikning turli yo'nalishlarida, shu jumladan pragmatik lingvistikada ham tadqiq qilish mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi rus va o'zbek tilshunosligida gender nutqidagi diskurs belgilarini o'rganishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Diskurs belgilari zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilgan. Diskurs belgilari aniq ma'no berishga qaratilgan emas. Mazkur belgilar nutq shakllanishida qo'llaniladigan so'z va iboralar sifatida e'tirof etiladi. Diskurs belgilari jumla va gaplar qismlarini mantiqiy bog'lashga yordam beradi, shu bilan so'zlovchining ma'lumotga munosabatini bildiradi yoki nutqning salbiy bo'yoqdorligini yumshatadi. Diskurs belgilarini Yu.Viktorova ko'makchi kommunikativ birliklar sifatida belgilaydi, ular so'zlovchiga gap tuzishga yordam beradi, shunda u tinglovchiga tushunarli bo'lib, kommunikativ aloqa o'rnatiladi [1,2].

Xorijiy va rus tilshunosligida bu atamani o'rganishga turlicha yondashuvlar mavjud. Shuni ham aytish kerakki, diskurs belgilari turli atamalar ostida tadqiq qilingan. Rus tadqiqotchisi Ye.Yu.Viktorova diskurs belgilarini o'rganish obyektiga bog'lovchilar, diskursiv belgilar, modal so'zlar, pragmatik operatorlar, metamatn tuzilmalarini kiritib, ularni umuman diskursiv deb ataydi

TILSHUNOSLIK

[3]. Bu atamalar xorijiy tilshunoslarining tadqiqotlarida ham kuzatiladi, xususan, diskurs bog'lovchilari [7], diskurs operatorlari [12], diskurs qismlari [14], diskurs signal qurilmalari [11], pragmatik bog'lovchilar [8, 13], pragmatik ifodalar [9], pragmatik shakllar [10] kabi nomlari bilan yuritiladi.

NATIJA VA UNING MUHOKAMASI

Gender tilining tadqiqida ayrim so'zlarning gapni bog'lash vositasi sifatida qo'llanishiga e'tiborimizni qaratdik. Ma'lumki, erkaklar nutqida fikrni tasdiqlash (*albatta, shubhasiz*) modal so'zlar qo'llansa, ayollar nutqida ikkilanishni ifodalaydigan (*menimcha, balki, bo'lishi mumkin*) modal so'zlar uchraydi [6].

Ye.Yu.Viktorova diskursning tadqiq obyektiga bog'lovchilar, diskursiv markerlar, modal so'zlar, pragmatik operatorlar, metamatn tuzilmalarini kiritib, umumiy jihatdan diskursiv deb nomlagan. Tadqiqotchi diskursivlarni ularning funksiyasiga asosan guruhlariga taqsimlagan xolda o'rganib, ularning erkak va ayollar tomonidan qo'llanishiga o'z diqqatini qaratgan [1].

Diskursivlar quyidagicha tasniflangan: tashkiliy-tizimli guruh kogeziya, ya'ni mantiqiy birikish funksiyasini bajauvchi diskursivlar: *birinchidan, shunday qilib, xullas*. V.Gladrov diskursivlarning bu turini nomlash uchun pragmakommunikativ operatorlar terminni taklif etadi. Ushbu guruh diskursivlari matnda eng ko'p uchraydigan diskursiv turlariga kiritiladi, chunki ular mantiqiy izchillik, ketma-ketlik, so'zlovchi yoki muallifning fikrini tartiblab berishini ta'minlaydi [4].

Diskursivlarning keyingi guruhini subyektiv-modal kategoriyalar tashkil qiladi va so'zlovchining fikrini ko'rsatib, baholash, mantiqiy ehtimollikni ifodalaydi: *balki, albatta, ... fikricha, o'ylaymizki* va boshqalar.

Diqqatni jamlovchi diskursivlar qatoriga (акцентно-выделительные) kishining e'tiborini tortuvchi ifodalar kiritiladi: *aytish kerakki, aynan...*

Refleksiv diskursiv guruhiga aniqlashtirish ifodalar kiritiladi: *ya'ni, boshqacha qilib aytganda...*, birorta kishining fikriga tayanish, havola qilish: *...fikricha, ...tadqiqotiga asosan, ma'lumotlariga qarab...* [1].

Ye.Yu.Viktorova diskursivlar tahlilida ularning gender aspektida o'rganib chiqqan, ya'ni, erkak va ayollar tomonidan diskursivlarning qaysi turi ko'proq qo'llanishiga o'z e'tiborini qaratgan. Tashkiliy-tizimli va diqqatni jamlovchi diskursiv turlari erkak va ayollar nutqida bir xil uchraydi. Subyektiv-modal diskursivlar hamda refleksiv diskursivlar erkaklarning nutqida ko'proq qo'llanishi yaqqol ko'zga tashlanadi [2]. Bundan xulosa chiqarishimiz mumkinki, erkaklar subyektiv-modal diskursivlardan ko'proq foydalanishi ularning o'z fikrini bildirishini, nutqda so'zlovchi sifatida o'zining fikrini ma'qullashini hamda mantiqiy jihatdan so'zlarini isbotlashini namoyon etadi. Refleksiv diskursivlar erkaklar nutqida ko'proq qo'llanar ekan, bu esa ularning aniq faktlarga asoslanganligi, o'zlarining gaplariga birorta shaxsning fikrini isbot sifatida keltirish erkaklarning ichki olami hissiyot olami emas, balki faktlar, aniq ma'lumotlarga yondashish orqali ichki olami shakllanishi dalilidir.

O'qituvchi (ayol kishi):

– ...*Mening darsimda o'zini g'alati tutdi. Keyin qo'pollik qilib chiqib ketdi...*

Direktor:

– *Buni nima uchun men bilmayman?*

– **Eshitishimcha, u adabiyot darsidan ham chiqib ketgan.** (T.Malik, Talvasa)

Keyingi misollarda ham diskursivlar mazmuniy lakunani mantiqiy presuppozitsiya orqali tushunishni ta'minlaydi.

– *В этом году тебя внесла в санкционный список Канада...*

– **По-моему, ещё Латвия.** (Argumenti i fakti)

Mantiqiy presuppozitsiyani talab qiladigan nutq ko'proq erkak nutqiga xosligi bilan ajralib turadi.

Yuqori bobda gender nutqdagi diskursivlar haqida nazariy ma'lumotga o'z fikrimizni berish maqsadida quyidagi misollarga e'tiborimizni qaratamiz. Erkakning nutqini unda qo'llangan subyektiv-modal kategoriyali diskursivlarga ko'ra ajratishimiz mumkin. Yuqorida nutqda qo'llangan shaxsiy fikrni bildiruvchi *по-моему* diskursivi ko'proq erkaklar nutqida qo'llanganligi qator misollarda izlanishlarimizdan ko'rindi. Ayollarning o'zgalarning fikriga tayanishiga *eshitishimcha* diskursivi, erkaklarning o'z fikrini ifodalashni xush ko'rishiga *по-моему* diskursivi yorqin misol bo'lib kelmoqda.

Shu bilan birga, aytishimiz mumkinki, erkaklar nutqida mantiqiy birikish funksiyasini bajaradigan, ya'ni *birinchidan*, *ikkinchidan* va xkz. mantiqiy izchillikda ifoda etiladigan va faktlarga asoslangan diskursivlar ko'p qo'llanadi. Ye.Yu.Viktorova ushbu diskursiv turlarini tashkiliy-tizimli diskursivlar turiga kiritib, ularni erkak va ayollarning nutqida teng miqdorga qo'llanishini ta'kidlaydi [1]. Lekin biz qator badiiy asar, publitsistik uslubdagi intervyu janridagi maqolalar, gazeta maqolalarini tadqiq qilib, olimaning ushbu fikriga qarshilik bildirib, tashkiliy-tizimli diskursivlar erkak nutqiga xosligini ta'kidlaymiz. I.V.Polevaya diskursivlarning ushbu turini sabab-natija munosabatlarini ko'rsatuvchi deb ifodalaydi va erkaklar nutqida ko'proq qo'llanishini tasdiqlaydi [5]. Erkaklar o'zlarining gapiga vazn, ishonch tug'dirish maqsadida diskursivlarning mazkur turini qo'llaydi. Hamda mantiqiy izchillikda ifoda etilgan fikr erkak kishining ichki mantiqiy olami dominantlik qilganligi tufayli aynan erkak nutqiga xosdir. Masalan:

Militsiya xodimi:

– *Ko'rinmay qolganidan xavotirlangmadingmi? Uydan xabar olmadingmi?*

Qamariddin:

– *Birinchidan, uyini bilmayman, ikkinchidan nega men xavotirlanishim kerak?*

Uchinchidan, xavotirlanish nima o'zi, men tushunmayman. (T.Malik, Talvasa)

XULOSA

Umumlashtirib, aytish joizki, bugungi kunda gender nutqi keng o'rganilmoqda. Shu bois, gender nutqida nafaqat fonetik, morfologik, sintaktik yoki leksik aspektlariga, balki pragmatik bog'lovchi hisoblangan diskurs belgilarning qo'llanilishiga e'tibor berish bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlarning doirasini kengaytirishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Викторова Ю. Влияет ли гендер на использование дискурсивов (на материале письменного научного дискурса) // Известия Саратовского университета, 2011. Т. 11. Вып. 3. – С. 8-13.
2. Викторова Ю. В. Дискурсивы для устной научной речи (на материале лекций) // Известия Высших учебных заведений. – Поволжский регион, 2015. – С. 55-58.
3. Викторова Е. Ю. Роль вспомогательных коммуникативных единиц в реализации категории категоричности в устной речи // Современные исследования социальных проблем, Modern Research of Social Problems. 2014. – № 11 (43).
4. Гладков В., Которова Е. Г. Модели речевого поведения в немецкой и русской коммуникативной культуре. – М.: ЯСК, 2021. – 472 с.
5. Полевая И. В. Речевые гендерные стереотипы и их реализация в Российском аналитическом дискурсе: Дисс... учён. степ. канд. фил. наук. – Москва, 2014.
6. Сорокина А. С. Особенности перевода художественного произведения с учётом гендерного аспекта. Россия, Самара https://www.imi-samara.ru/wp-content/uploads/2015/05/21_Sorokina_130-135.pdf
7. Blakemore D. Understanding utterances. – Oxford: Blackwell, 1992.
8. Erman B. Pragmatic expressions in English: A study of you know, you see, and I mean in face-to-face conversation. – Stockholm: Almqvist and Wiksell, 1998.
9. Fraser B. Types of English discourse markers // Acta Linguistica Hungarica, 1988, 38(1-4). – P. 19-33.
10. Halliday M., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1980.
11. Polanyi L., Scha R. The syntax of discourse. Text 3, 1983. – P. 261-270
12. Redeker, G. Ideational and pragmatic markers of discourse structure // Journal of Pragmatics, 1990, 14(3). – P. 367-381.
13. Schorup Common discourse particle in English conversation: Like, well, y'know. – New York: Garland, 1985.
14. Stubbs M. Discourse analysis. – Chicago, IL: The University of Chicago Press, 1983.